

ISHEMIK VA GEMORRAGIK INSULTLARNING KLINIK KECHISHI VA DAVOLASH YONDASHUVLARINI QIYOSIY TAHLIL QILISH

Jabbarova Risolat Baxtiyor qizi
Respublika Shoshilinch Tibbiy yordam Yordam Ilmiy Markazi
Toshkent sh. O'zbekiston
e-mail: jasurdoctor601@gmail.com

Annotatsiya. Ishemik insult umumiy insultlarning 80–85% ni tashkil etib, asosan miya arteriyalarining tromboz yoki emboliyasi natijasida rivojlanadi. Gemorragik insult esa qon tomir devorining yorilishi va parenximaga qon quyilishi oqibatida paydo bo'ladi. Klinik belgilar o'xshash bo'lsa-da, ishemik insultda simptomlar bosqichma-bosqich kuchayadi, gemorragik insultda esa to'satdan paydo bo'ladi va og'ir kechadi. Ushbu tezisda ishemik va gemorragik insultlarning klinik kechishi, patogenez xususiyatlari hamda davolash taktikalari qiyosiy tahlil qilindi.

Tadqiqotning maqsadi — har ikki turdagi insultlarda erta diagnostika, davolash samaradorligi va rehabilitatsiya natijalarini baholashdan iborat.

Tadqiqot materiallari. Tadqiqotda 2023–2024 yillarda 60 nafar insult bilan shoshilinch yordamga murojaat qilgan bemorlar tahlil qilindi. Shulardan 40 tasi ishemik, 20 tasi gemorragik insult bilan og'rikan. Bemorlarning o'rtacha yoshi 58 ± 6 yoshni tashkil etdi. Ishemik insultli bemorlarda neyroprotektiv terapiya (Mexidol, Cerebrolysin) va antikoagulyantlar qo'llanilganda nevrologik deficit NIHSS shkalasi bo'yicha 7 kun ichida 18% ga kamaydi. Gemorragik insultda esa neyroxirurgik dekompressiya o'tkazilgan 5 bemorda o'rtacha Bartel indeksi 45 dan 62 gacha yaxshilandi.

Natijalar. Qiyosiy tahlil natijasida ishemik insultda erta trombolitik va neyroprotektiv muolajalar, gemorragik insultda esa qon quyilish hajmiga qarab individual jarrohlik yondashuv tanlanishi tiklanish darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlandi. Rehabilitatsiya bosqichida fizioterapiya, logoped mashg'ulotlari va psixologik qo'llab-quvvatlash muhim ahamiyat kasb etdi.

Xulosa. Insultning har ikki turida erta tashxis va to'g'ri davolash usullarini tanlash hayot sifatini tiklash va nogironlik darajasini kamaytirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Klinik amaliyotda zamonaviy neyroprotektiv terapiya va individual yondashuv kompleks qo'llanganda rehabilitatsiya samaradorligi ortadi.

Kalit soʻzlar: insult, ishemik insult, gemorragik insult, neyroproteksiya, reabilitatsiya, klinik tahlil.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Feigin V.L., et al. Global burden of stroke. Lancet Neurology, 2021.
2. Campbell B.C.V., et al. Ischemic stroke pathophysiology and therapy. Nature Reviews Neurology, 2023.
3. Oʻzbekiston Respublikasi SSV. 'Insult diagnostikasi va davolash' klinik protokoli, 2023.
4. Karimov M.A. Neyrologiyada zamonaviy yondashuvlar. Toshkent, 2022.
5. World Health Organization. Stroke fact sheet, 2024.